



O'ZBEKİSTON MİLLİY UNİVERSİTETİ

XABARLARI

İJTİMOİY-GUMANİTAR FANLAR
YO'NALISHI



Sadoqat MAXMUDOVA,

Buxoro davlat universiteti doktoranti

gmail: sadoqatmaxmudova 948@gmail.com

BuxDU dotsenti, f.f.f.d.(PhD) Axmedova D.B. taqrizi asosida

"OSTONA" LINGVOMADANIY BIRLIGINING LEKSIK-SEMANTIK MAYDONI

Annotatsiya

Barcha so'z turkumlariga doir leksik-semantik guruhrular, ularning maydonlari turli xil nuqtayi nazaridan ilmiy asoslanadi, chunki leksemalar juda murakkab va ko'p qirrali til birliklaridir. Jumladan, so'z yasash stilistik, tilda voqelanish, ichki ma'no yo'nalişlarida o'rganilib, asosiy xususiyatlari nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilinadi, chunki so'z leksika va grammaticanig asosiy birligidir. Biz ham mana shunday leksik-semantik guruhlardan biri bo'lgan "Ostona" leksemasining tilda voqelanish guruhini faqatgina lingvomadaniy ma'nolari nuqtayi nazaridan bir maydonga to'plab tahlil qilishni maqsad qildik. Leksemalarni "Ostona" lingvomadaniy maydoniga to'plashimizning asosiy prinsipi ularning asl leksik ma'nosi emas, balki madanly tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan ko'chma ichki ma'nolar ifoda etishidir.

Tilshunoslikka doir manbalarda leksik-semantik munosabatlar borasida ko'pgina atamalar ishlatalidi. Uлардан juda ko'p ishlataligidanlari: leksik-semantik maydon (LSM), leksik-semantik guruh (LSG), semantik maydon (SM), tematik guruh (TM). Ma'lumki, tilning leksik (lug'at) sistemasida turlicha guruh va "so'z maydonlari" mavjud. Tilshunoslikda maydon – bu turli so'z turkumlariga mansub bo'lgan bir xil tushuncha ifodalovchi so'zlar majmuidir. Tilda "maydon" muammosi yo'nalişida ko'pgina olimlar ish olib borganlar (O.S.Axmanova, H.I.Filichyova, A.A.Nikitina, O.G.Revzina, Y.S.Milkevich, I.Y.Belyayeva, Y.Y.Archipova)iga qaramasdan hanuzgacha bir to'xtamga kelinmagan. Shuni ham e'tirof etish kerakki, yuqoridagi atamalar ta'riflarida farqlar bo'lsa-da, umumiyo o'xshashliklar ko'pchilikni tashkil etadi. Qarang. Semantik maydon – bu umumiyo (invariant) ma'no jihatidan birlashgan ko'pgina so'zlarning iyerarxik tarkibidir (I.V.Arnold.2b. 118-127b). Agar lug'at birliklari umumiy integral semaga ega bo'lsa, ular lug'at maydonini tashkil qila oladi.

Endi bizning ilmiy izlanishlarimizda muhim o'rinn egallagan leksik-semantik maydonga e'tibor qaratatsak, u boshqalaridan farqli o'laroq eng sodda, mukammal va mahsulorroqdir.

LSM tilshunoslikda asosan ikki: keng va tor qamrovli so'zlar to'plamidan tashkil topadi. Birinchisi – leksik ma'no jihatidan bir-biriga yaqinroq bo'lgan obyektlarni ifodalovchi semalarni o'zida qamrab olsa, ikkinchisi – asoslangan lug'aviy ma'no va mazmun ifodalovchi leksik birliklardan tashkil topadi. Boshqacha qilib aytganda, birinchisi ma'no yaqinligi (ya'ni, to'liq ma'nodoshlikka ega bo'limganlari ham kirishi mumkin) jihatdan bo'lsa, ikkinchisi-semalarning asosiy lug'aviy ma'nolari asosida LSM ga kiradi.

L.A.Novikov LSMga quyidagicha ta'rif beradi: "Iyerarxicheskaya struktura mnojestva leksicheskix yedinit, obyedeninmix obshim (invariantnim) znacheniem i otrijayushaya v yazike opredelyonnuyu ponyatiynuyu sferu" [42,77b.] ya'ni, ma'lum bir soha haqida ma'no va tushuncha asosida birikkan qator lug'aviy birliklarning iyerarxik tizzimidir.

LSM – murakkab, keng qamrovli birlashma bo'lib, o'z ichiga bir necha leksik-semantik guruhrarni qamrab oladi, LSM larning murakkabligi ularning ichki tizimi bilan bevosita bog'liqidir. Ichki tizim o'zagini yadro so'z tashkil etsa, uning qamrovini leksik ma'no jihatidan betaraf bosh semadan birin-ketin uzoqlashib borayotgan birliklar egallaydi. Shuningdek, yadro sema o'rnini uning qamrovidan o'rinn olgan

leksemalar ham egallashi mumkin, agarda ular o'zlarining kichik, mikro LSMlariga ega bo'lishsa. Shu bois LSM LSG ga nisbatan birlamchidir. Bundan tashqari, shuni ham e'tirof etish kerakki, agar LSG tarkibiga kirgan barcha so'zlar faqatgina bir so'z turkumiga doir bo'lsa, LSM tarkib a'zolari turli so'z turkumi vakillaridan tashkil topa oladi.

Yuqorida keltirilgan nazariy tushunchalar asosida "Ostona" lingvomadaniy leksemasining leksik-semantik maydonini tuzishga harakat qilamiz. Izlanishlarimizni LSM tarkibini aniqlashdan boshlaymiz. Buning uchun eng avvalo "Ostona" so'ziga ma'nodosh yoxud unga yaqin tushuncha ifodalovchi til birliklarining asl va ko'chma lug'aviy ma'nolari bilan tanishamiz.

Biz ham mana shunday leksik-semantik guruhlardan biri bo'lgan "Ostona" leksemasining tilda voqelanish guruhining faqatgina lingvomadaniy ma'nolari nuqtayi nazaridan bir maydonga to'plab tahlil qilishni maqsad qildik va uning doirasiga quyidagi ot so'z turkumiga mansub so'zlarini kiritdik: Vatan, el, yurt, o'lka, diyor, go'sha, makon, manzil(goh), uy darboza, darvoza, dargoh, eshik, ostona.

Mazkur LSMga kirgan barcha til birliklari o'zining yashash joyi semantikasi bilan birlashgan bo'lib, ma'nodoshlik munosabatini bildiradi. Ularning lug'aviy ma'nolariga (5 tomlik izohli lug'at asosida) e'tibor berib o'xshashlik va farqlarini tahlil qilganda uy, yashash joyi bo'lsa-da, ishlatalish valentligi turlicha, aniqroq qilib aytganda, sintaktik munosabatlar turlichaligi bilan farqlanadi. Leksemalarni "Ostona" lingvomadaniy maydoniga to'plashimizning prinsipi ularning asl leksik ma'nosi emas, balki madanly tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan ko'chma ichki ma'nolar ifoda etishidir. Bundan tashqari, so'zlar joylashuvni graduonimik (darajalanish) munosabatlarni ham tasvirlaydi. Leksik graduonimlar – bir xil denotativ (asl, to'g'ri) ma'no ifodalovchi, ammo qaysidir belgi darajasi bilan farqlanadigan qator so'zlar tizması. Gradual qatorning asl mohiyati shundaki, unda yadro, dominanta so'zdan chap tomonda ma'no, tushuncha ifodalash darajasi past bo'lgan so'zlar joylashsa, o'ng tomonda ma'no darajasi oshib boradigan leksemalar o'rinn egallaydi. Quyidagi chizmaga e'tibor bering.

Ostona – eshik – darboza – (uy) – manzil – makon – dargoh – go'sha – diyor – o'lka – yurt – el – Vatan.

Betaraf uy so'zidan chap tomonda lingvomadaniy ma'no ifodalash darajasi pasayib borgan so'zlar tizilsa, o'ng tomonda ma'no darajasi o'sib borayotgan so'zlar joylashadi. Ma'lumki, atrof-muhitni egallagan barcha mavjudotlar

darajalanganidek, tahlil qilinayotgan bizning LSM ham bundan mustasno emas. Lingvomadaniy birliklar tahlili aynan mana shu so'z ma'nosidan tushuncha, mazmunga (madaniy

tushunchaga) o'tish jarayoni maydoni doirasida olib boriladi. Bu jarayon chizmasi quyidagi shaklga ega:

Denotativ ma'no	Lingvomadaniy birlik Belgi Til birligi	konnotativ ma'no
Mazmun	Tushuncha madaniy ma'no va mazmun	

Yuqorida keltirilgan nazariy ma'lumotlarimizning amaliy tasdig'i sifatida "Ostona" lingvomadaniy leksik-semantik maydonidan o'rın olgan til va madaniyat birliklarining tahliliga e'tibor beramiz.

"Ostona" lingvomadaniy leksik-semantik maydon yadrosini (markaziy, betaraf, barcha guruh so'zlarini o'zida mujassamlashtirgan) Vatan so'zi egallagan bo'lib, tug'ilib o'sgan va o'zimi uning fuqarosi hisoblagan mamlakat; ona-yurt, ona-Vatan, boshpana, maskan, uy, ostona (uyning bir bo'lagi) kabi ma'nolar ifodalaydi. Shuningdek, o'simlik, shahar, kishilarning asli kelib chiqqan yeri (uy limoni-butagullilar oilasiga mansub, doim yashil subtropik o'simlik. Vatani-Xitoy, Yaponiya....Taqdir qilgan joyda Vatan qilamiz) singari ko'chma ma'nolarga ega. Bundan tashqari, Vatan so'zi murakkab shakllarda quyidagi lug'aviy ma'nolarni kashf etadi:

vatangado – Vatandan kechib, qo'chib, o'zga ellarda darbadar yuruvchi: qochoq (Vatangado bo'lguncha, kafangado bo'i);

vatangadolik – vatangadoga xos hayot, holat, vatangado bo'lib yashash (Vatangadolikning azobi go'r azobi bilan teng ekan);

vatandosh – bir mamlakatda tug'ilib o'sgan kishilar (Furqat chet ellarda yashagan yillarda vatani va vatandoshlari bilan doimo aloqada bo'ldi);

vatanjudolik – vatandan judo holatdagi hayot (Olamda vatanjudolikdan yomon narsa yo'q);

vatanli – turar joyga, boshpanaga ega bo'lgan; uyli-joyli;

vatanparvar – o'z vatanini, ona yurtini, xalqini cheksiz sevuvchi, vatan manfaatlari uchun jonbozlik ko'rsatuvchi;

vatanfurush – o'z vataniga xiyonat qiluvchi, vatanini sotuvchi.[5 tomli izohli lug'atdan]

LSM o'zak, markaziy so'zi – Vatan lingvomadaniy birligining yuqorida keltirilgan "rasmiy" ma'nolaridan tashqari, uning ichki ma'no ko'lamini tahlil qilishdan oldin LSM tushunchasiga to'xtalishni joiz deb bildik.

Har qanday ilmiy muammoni o'rganishda eng muhim uslubiy masalalardan biri – tizimli va sintezlovchi yondashuvdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda LSM keng doira (qamrov) va yaxshi istiqbolga ega bo'lgan, umuman tarkib bilan birlashtirilgan va iyerarxik tuzilishga ega bo'lgan birliklar to'plamidir. U nafaqat LSM tizim qismlarining iyerarxik tuzilishini aks ettiradi, balki o'zaro bog'liq ravishda xususiy an'anaviy lingvistik munosabatlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Zamonaviy lingvomadaniy izlanishlar nazariyasida "Maydon" tushunchasi ma'lum obyektni o'rganish usuli, til va madaniyat birliklari uchun tasniflash tizimi hisoblanadi. Mazkur usul til hodisalarini madaniyat bilan bevosita va bilvosita bog'liq holda kompleks o'rganishda, shu jumladan, o'zbek tilining nutqda voqelanishi tasnifini lingvomadaniy nuqtayi nazardan o'rganish muhim ahamiyatga ega. L.A.Navikov "maydon" tushunchasiga shunday ta'rif beradi: "tilshunoslikka xos maydon tushunchasi fizikaga doir elektromagnit maydoni zarrachalarining tartibili harakatiga o'xshaydi". Boshqacha qilib aytganda, semasiologiyada

lisoniy birliklarning mazmun-ma'no jihatlarini tahlil qilish uchun ularni, "maydon"dan joy olgan birliklarning atom, yadro va ularning atrofidagi so'zlarini o'rganish fizik reaksiyalar tartibida yondashish kutilgan natijalar beradi [Navikov, 1991, p.3]. Bunday fizik yondashuv umumiy tushuncha nazariyasiga xos bo'lganligi uchun, lingvistik "maydon" mohiyatini to'la ocholmaydi. Buning sabablarini aniqlash uchun semantik "maydon"ning shakllanish tarixiga nazar solamiz. F.de Sossyur, I.A.Boduen de Kurtene, Novikovlarning leksik-semantik "maydon" tizimini fizik elektromagnit maydoni zarrachalari faoliyatiga o'xshatganlaridan (bu debochasi desak) so'ng ko'pgina tilshunos olimlar bu g'oyani rivojlantirib, mukammallik darajasiga yetkazishdi, jumladan, L.Veysgerber umumiy ilmiy emas, balki lingvistik tushunchalarni o'rgandi. Uning so'zlariga ko'ra, "tilning konseptual dunyosi" "maydon qonuniga" bog'liqidir. Har qanday "lingvistik soha" – bu "til dunyoqarashining bir bo'lagi", na obyektiv haqiqat, na lingvistik materiya bilan bog'liq bo'lmagan tushunchalar, g'oyalarning voqelanish tizimidir [Ermalayeva, 1960,p.56].

"Tilning kontseptual dunyosi" deganda barcha lingvistik hodisa va birliklar nazarda tutiladi, shuningdek, lingvomadaniy birliklarning madaniyat bilan bog'liq ichki ma'nolari ham konsept sifatida LSMdan o'r'in egallaydi. Madaniyatning tegishli bo'lagi, ya'ni obyektiv tildan tashqari aks etgan birliklarning asosiy tushunchalari, tuzilishi va faoliyati muqarrar ravishda "Maydon" tarkibida aks etgan. Biroq u tilshunoslik kategoriysi sifatida tegishli semantik maydon doirasidan tashqariga chiqadigan elementlar va aloqalarni ham aks ettirishi kerak. Shu bois, bunday soha, asosan, murakkab ko'p o'lchovli tuzilmani aks ettirishi kerak, chunki unda aks etgan elementlar nafaqat tilga, balki madaniyatga ham tegishli, ya'ni ular nafaqat lisoniy, balki o'ziga xos madaniy xususiyatlarga ham ega bo'ladi. Ularning semantikasi mohiyatani lisoniy ma'no va tildan tashqari ma'no birligidir.

Bunday (lisoniy ma'no va tildan tashqari ichki ma'no) birliklar lingvomadaniy soha deb ataladi. Vorobelevning fikricha "semantik maydon nazariysi lingvomadaniy soha tuzilishini mukammallashtirishga zamin yaratadi".[Vorobelev ...] Lingvomadaniy izlanishlarimiz jarayonida bunga amin bo'ldik. Eng avvalo shuni e'tirof etishimiz kerakki, ular tizimida juda ko'p umumiyliliklar, ya'ni izomorfizmlar kuzatiladi: maydon dominant, yadrosi, yadro atrofidagi sinonimlar, antonimlar, tutashgan sohalar tizimi, tutashgan maydonlar. Ma'lum bir semantik tizim ifodalovchi soha uning asosiy so'zlar lingvistik vositalar iyerarxiyasini aks ettiradi. Bunday tuzilmani elementlarning konseptual tasnifi va lisoniy birliklarning giper-giponimik aloqalarini aks ettiruvchi tur munosabatlardan foydalanan tasvirlash mumkin. ...

Lingvokulturologik sohalar tabiatiga ko'ra, lingvistik sohalar singari aniq va mavhum belgilarga ega bo'ladi. Bunga qarab ularning ustunligi, mos ravishda, aniq yoki mavhum semantika so'zlar hisoblanadi. Bu nafaqat bunday soha elementlarning moddiy aloqalarini, balki boshqa sohaga tegishli obyektlardan foydalanan, ularni moddiy va ma'naviy

madaniyatlarning elementlari sifatida ishlatalish xususiyatlarni ham aks ettiradi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, lingvokulturologik soha nafaqat boshqa sohalar uchun izomorfdir, balki o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Ularning asosiy semiotik tabiatini shundaki, ular tabiatiga ko'ra ko'p maydonlar bilan solishtirilganda murakkab, ko'p o'ichovli hodisaga aylanadi. Shuning uchun lingvokulturologik sohada birliklarning ikki tomoni ajratiladi: lingvistik va referensial. Shunday qilib lingvokulturologik sohani keng ma'noga ega bo'lgan va tegishli madaniy tushunchalar tizimini aks ettiruvchi birliklarning iyerarxik tizimi sifatida ta'riflash mumkin.

Til va madaniyat (lingvomadaniy birliklar) sohasidagi obyektlarni, jumladan, "Ostona" konseptini o'rganishda LSMning murakkab (sintezlovchi) birligi sifatidagi faoliyati muhim vosita sanaladi. G.Kandler ta'kidlaganidek, "...maydondagi bo'shliqlar bartaraf etiladi" [], ya'ni LSGlardagi tashqi va ichki (madaniy qadriyatlardan tizimi) "maydon" tizimida olib borilsa (bo'shiqsiz) ona tilimizda so'zlashuvchining til qobiliyati, uning tushunchasi, tafakkuri va nutqi nuqson siz bo'ladi.

LSM ilmiy izlanishlar usuli sifatida bir-birini boyitib, to'ldirib turadigan texnologiya hisoblanib, qator prinsiplarga tayanadi hamda maydondan o'rin egallagan birliklarni umumlashtiradi. Umumlashtirish deganda LSG a'zolarining ma'lum ma'no doirasidagi faoliyati nazarda tutiladi. Mana shu til va nutqda vogelanish quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- yaxshilik prinsipi;
- ma'no va mazmun jihatidan bir-biriga bog'liqlik prinsipi;
- maydon to'liqlik prinsipi;
- leksik-semantik guruh chegaralarini belgilash prinsipi.

Yuqorida keltirilgan prinsipler mohiyatini madaniy tilshunoslik yo'nalishi misolida tahlil qilganda ularning yaxlitlik va to'liqlik tamoyillarining bir-biri bilan chambarchas bog'liqligi ko'zga tashlanadi. Bu maqsadga erishish garovi, eng avvalo, manba tanlashga bevosita bog'liq bo'ladi. Aniqroq qilib aytganda, so'z yoki lingvomadaniy tushunchalarning (birliklarning) faqatgina salbiy yoki ijobjiy mazmuniga qarab emas, balki ularning ziddiyatlari hamda tilda vogelanish faoliyati ham o'rganilishi shart. Masalan, "Vatan" lingvomadaniy birligini o'rganish yoxud lingvistik, leksik tahlillar olib borishda tanlangan manba sifatida faqatgina Vatan, vatandosh, vatanli, vatanparvar; yurt, yurtgarchilik, yurtdosh, yurthilik leksemalari, balki vatangando, vatangadolik, vatanjudolik, vatanfurush,

vatanfurushlik; yurtfurush singari leksemalar ham manbaning muhim bo'lagi sifatida o'rganilishi zaruratdir. Chunki busiz LSG va LSM qamrovi to'liqsiz holatga keladi va natijada mavzu kutilgan maqsadga ega bo'lolmay qoladi.

Tartiblilik (tizimlilik) prinsipiga kelsak, uning asosiy maqsadi nafaqat qat'iy tanlangan tizimlashtirish, balki lisoniy madaniyat nuqtayi nazaridan iyerarxik (davomiylik) rivojlanish tizimini yaratish va uning mohiyatini ochib berish hisoblanadi. M: Tartiblilik prinsipi nafaqat lingvistikada, balki barcha sohalarda "yetakchi yulduz"dir. Jumladan, badiiy asarlар talqinida ham bu hodisa katta ahamiyatga ega. Shu o'rinda buyuk adib Said Ahmadning "Kiprikda qolgan tong" (qissalar, hikoyalar, xotiralari) asaridan kichik bir parcha keltiramiz. Bundan ko'zlangan maqsadimiz asarda ta'riflangan vatanparvarlik tuyg'usi lingvomadaniy tushunchasini tizimli yo'sinda ma'no va mazmun ko'lamining mohirona ochilganligi LSM faoliyati tartibi bilan qiyoslashdir.

«Ufq»ni yozishdan oldin «Cho'l hikoyalari»ni yana bir marta hafsala bilan, sinchiklab o'qib chiqdim. Adabiylas aralalariga javob bera oladigan durust asar bo'pti. Birdaniga xayolimga, «Axir bu hikoyalarda inson dardi, iztiroblari yo'qku?», degan o'yeldi. Biz hammamiz, jami ijodkorlar oftobda kuyib, kechalari chivinga talanib, qum bo'ronlarida yuzko'zini doka bilan o'rab ishlayotgan yupun odamlarni yurak amri bilan vatanparvarlik burchini ado etgani kelgan, chinakam fidoyi, oriyatlari, ilg'or sovet grajdamlari, azamat cho'lquvarlar, deb ta'rifladik. Aslida shundaylik? Do'ppini olib qo'yib, bir o'ylab ko'rsam, ularni bu xudo qarg'agancho'llarga ehtiyoj, muhtojlik boshlab kelganligi ma'lum bo'lmaydim? Kim bekordan-bekorga issiq o'rnini sovitadi? Ha, ular o'zim yemasam ham, bolalarim non yesin, ustti but bo'lsin, velosiped mingan bolalarga qarab o'ksimasin, u ham «morojeniy» yesin, magnitonfon bo'lsin, televizor ko'rsin... degan ilinjda bunda ishlahmoqda-ku! 126-b.

Keltirilgan parchada Said Ahmad "Vatanparvarlik burchi" degan tushunchaning asl yetakchi ma'nosini (o'z vatani, ona yurtini, xalqini cheksiz sevuvchi, vatan manfaatlari uchun jonbozlik ko'rsatuvchi) ichki mazmunlarini "Inson dardi, iztiroblarini" tizimli ravishda ochib bergen. Adib "Vatanparvar" tushunchasiga ehtiyoj, muhtojlik til birliklari orqali teskar ma'no anglatadigan lingvomadaniy so'zlar bilan "Cho'lquvarlarning" asl maqsadlarini ochib bergen.

Xulosa qilib aytganda, LSGdan joy egallagan so'zlardan LSM uchun til birliklarning tanlab olinishi "maydon" tarkibini ma'lum bir tarzda aniqlashga yordam beradi. Shu asnoda LSM chegaralari belgilanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Воробьев В. В. Лингвокультурология. Теория и методы. М.: Изд-во РУДН, 1997, С 331.
2. Исрафилова Д.Ш. Взаимосвязь языка и культуры как основной объект лингвокультурологии // Вестник ТГГПУ (Томский государственный педагогический университет). 2010. №2(20). С 217-220.
3. Телия В.Н. Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. С 288
4. Said Ahmad "Kiprikda qolgan tong" «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati Toshkent, 2008, 126-b.
5. "O'zbek tilining izohli lug'ati" 5 jildli, Toshkent, 2008.